KOLLOKATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING LINGVISTIK TALQINLARI

Shahzoda Umarova Iqboljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktorant
missshahzodaumarova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-8258-653X

Annotatsiya
Ushbu maqolada kollokatsiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kollokatsiyaning kombinator lingvistika tizimidagi o‘rni, uning asosiy belgilari hamda turli lingvistik maktablar tomonidan talqin qilinishi yoritiladi. Tadqiqot natijasida kollokatsiyaning semantik, leksik va funksional moslikka asoslangan, nutqda muntazam qo‘llanadigan kombinator birlik ekanligi asoslanadi.

Kirish so‘zlar: *kollokatsiya, kombinator lingvistika, kombinator xususiyat, leksik moslik, semantik moslik, birikuvchanlik, korpus lingvistikasi, leksikografiya, valentlik, frazeologiya.*

KIRISH

Til birliklarining kombinator xususiyatlari haqida so‘z yuritganda, bu xususiyatning real nutqda qanday namoyon bo‘lishi masalasi tabiiy ravishda kollokatsiya tushunchasiga olib keladi. Oldingi bo‘limda kombinator imkoniyat til birliklarining boshqa birliklar bilan bog‘lanish salohiyati sifatida talqin qilingan edi. Endi shu salohiyatning nutqdagi muntazam va kuzatiladigan ko‘rinishi sifatida kollokatsiyani izohlash zarurati paydo bo‘ladi. Shu ma’noda kollokatsiya kombinator lingvistikaning chekka emas, balki markaziy kategoriyalaridan biri sanaladi, chunki aynan u til birliklarining qaysi hollarda, qanday sharoitda va qanday birliklar bilan “tabiiy” bog‘lanishini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Kollokatsiya atamasi dastlab bugungi kundagi kabi qat’iy nazariy mazmunda emas, ko‘proq amaliy til o‘qitish ehtiyojlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Harold E. Palmer ingliz tilidagi odatiy birikmalarni alohida o‘rganish zarurligini ko‘rsatib, til o‘rganuvchi uchun ayrim so‘zlar yakkama-yakka emas, balki birga qo‘llanadigan holatda yodlanishi kerakligini ta’kidlagan. Uning 1933-yildagi *Second Interim Report on English Collocations* ishi kollokatsiyani maxsus kuzatish obyektiga aylantirgan ilk yirik manbalardan biri hisoblanadi. Palmer yondashuvining kuchli tomoni shundaki, u kollokatsiyani abstrakt nazariy birlik emas, balki tilning o‘rganish va qo‘llash jarayonida real seziladigan hodisa sifatida ko‘rsatadi. Demak, kollokatsiya tushunchasining shakllanishi avvalo tilning odatiy ishlatilishini tavsiflash ehtiyojidan kelib chiqqan [1, P.136].

Bu amaliy yo‘nalish keyinchalik A. S. Hornby, E. V. Gatenby va A. H. Wakefield tomonidan tuzilgan *Idiomatic and Syntactic English Dictionary*da yanada rivojlantirildi. Mazkur lug‘atning ahamiyati shundaki, unda so‘z ma’nosi faqat semantik izoh orqali emas, balki u qaysi birliklar bilan kelishi orqali ham ochib beriladi. Bu esa kollokatsiyani lug‘atshunoslikka kirib kelgan mustaqil tavsif elementi sifatida ko‘rish imkonini yaratdi.

Lug‘atning o‘zi amaliy maqsadda tuzilgan bo‘lsa-da, uning metodik mazmuni kollokatsiya nazariyasining keyingi shakllanishi uchun katta ta’sir ko‘rsatdi: so‘zning tabiiy qurshovi uning ma’nosini anglashda ajralmas unsur ekanligi aniq ko‘rsatildi. Shuning uchun Palmer va Hornby an’anasi kollokatsiyani “til birligining odatiy hamrohlari” orqali tushuntiruvchi dastlabki bosqich sifatida baholanishi mumkin [2, P.201].

Kollokatsiya tushunchasining chinakam nazariy mustahkamlanishi esa J. R. Firth nomi bilan bog‘liq. Firth so‘z ma’nosini faqat lug‘aviy izoh yoki grammatik funksiya bilan cheklamay, uni kontekstual qurshov bilan ham izohlash lozimligini ko‘rsatdi. Uning “a word is known by the company it keeps” degan mashhur g‘oyasi aynan shu nuqtani ifodalaydi. Firth uchun kollokatsiya oddiy yonma-yon kelish emas; u til birliklarining ma’no hosil qilish jarayonidagi kontekstual aloqasidir. Bu yondashuv kollokatsiyani so‘zlar orasidagi statistik qo‘shnichilikdan ko‘ra chuqurroq, ya’ni semantik va funksional munosabat sifatida ko‘rishga yo‘l ochdi. Boshqacha aytganda, Firth kollokatsiyani til birliklarining kombinator xulq-atvorini ifodalovchi muhim ma’no ko‘rsatkichi darajasiga ko‘tardi [3, P.208].

Kollokatsiya haqidagi nazariy qarashlar faqat Britaniya maktabi bilan cheklanib qolmagan. A. P. Cowie kollokatsiya va idiomlarni o‘quv lug‘atlarida berish masalasini tahlil qilib, kollokatsiyani erkin birikma bilan idiomatik birlik orasidagi alohida qatlam sifatida ko‘radi. Uning yondashuvida kollokatsiya tarkibiy qismlari ma’nosini saqlab qoladi, biroq ularning o‘zaro tanlanishi mutlaqo erkin bo‘lmaydi. Bu juda muhim mezondir, chunki aynan shu nuqta kollokatsiyani na oddiy sintaktik birikma, na to‘liq frazeologik butunlik sifatida talqin qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Cowie kollokatsiyaning lug‘atdagi tavsifi leksikografik masala bo‘lishi bilan birga, u semantik va kombinator tabiatga ham ega ekanini ko‘rsatadi. Shu tariqa, kollokatsiya nafaqat korpusda uchraydigan, balki lug‘aviy normaga aylangan birlik sifatida ham tushunila boshlaydi [4, P.228].

Yevropa frazeologiya an’anasida Franz Josef Hausmannning ishlari kollokatsiyaning ichki qurilishini yanada aniqlashtirdi. U kollokatsiyani ikki unsurli, lekin ichki jihatdan teng bo‘lmagan birlik sifatida ko‘radi: bir unsur semantik tayanch vazifasini bajaradi, ikkinchisi esa shu tayanch bilan odatiy ravishda bog‘lanadi. Bu qarash kollokatsiyani shunchaki “tez-tez birga keladigan ikki so‘z” tarzida tushunishni toraytiradi va uning ichki strukturani tashkil etishini ko‘rsatadi. Hausmann yondashuvining foydali tomoni shundaki, u kollokatsiyaga nisbatan formal va semantik mezonlarni birgalikda qo‘llaydi [5, P.127]. Natijada kollokatsiya nafaqat chastotali birlik, balki tarkibiy jihatdan tashkil topgan va normativlashgan leksik bog‘lanish sifatida talqin qilinadi.

Rus tilshunosligida kollokatsiyaga yaqinlashuv, asosan, leksik semantika va so‘zlarning сочетаемость (moslashuv) muammosi orqali shakllangan. Y. D. Apresyan til birliklarining ma’nosi ularning semantik xususiyatlari va boshqa birliklar bilan moslashuvi orqali ochilishini ko‘rsatib, so‘zlarning leksik birikuvchanligini tizimli hodisa sifatida izohlaydi. Uning ishlari kollokatsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu termin bilan har doim ajratmasa ham, kombinator cheklanish va semantik moslik masalasini chuqur tahlil qiladi. I. A. Melchuk esa “Смысл ⇔ Текст” modeli va leksik funksiyalar

nazariyasi orqali bu masalani yanada formal darajada ishlab chiqdi. Uning yondashuvida so‘zlarning odatiy bog‘lanishi tasodif emas, balki til tizimida model qilinadigan hodisa hisoblanadi [6, P.295]. Shu sababli Apresyan kollokatsiyaning semantik asosini, Melchuk esa uning tizimli-modellashtiriladigan tomonini kuchaytiradi. Bu ikki qarash rus maktabida kollokatsion hodisani nazariy jihatdan chuqur tushuntirishga xizmat qilgan.

XULOSA

Shunday qilib, kollokatsiya tushunchasini birgina ta’rif bilan chegaralab bo‘lmaydi. Turli maktablar uni turlicha yoritgan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy belgilar mavjud. Birinchidan, kollokatsiya odatiy va muntazam birikish bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, uning tarkibiy qismlari ma’no jihatdan to‘liq erib ketmaydi, ya’ni nisbiy semantik mustaqillikni saqlaydi. Uchinchidan, bunday birliklarda tanlash erkinligi ma’lum darajada cheklangan bo‘ladi. To‘rtinchidan, kollokatsiya real nutqda kuzatiladigan va korpus materiali orqali tasdiqlanadigan hodisadir. Shu mezonlar asosida kollokatsiyani kombinator lingvistika nuqtai nazaridan quyidagicha talqin qilish mumkin: kollokatsiya - bu til birliklarining semantik, leksik va funksional moslik asosida nutqda muntazam birga qo‘llanadigan, tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil bo‘lsa-da, ularning tanlanishi to‘liq erkin bo‘lmagan kombinator birlikdir. Bu ta’rif, menimcha, kollokatsiyaning ham nazariy, ham amaliy mohiyatini eng to‘liq ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Palmer H. E. *Second Interim Report on English Collocations, Submitted to the Tenth Annual Conference of English Teachers under the Auspices of the Institute for Research in English Teaching*. – Tokyo: Institute for Research in English Teaching, 1933. – 188 p.
2. Hornby A. S., Gatenby E. V., Wakefield A. H. *Idiomatic and Syntactic English Dictionary*. – Tokyo: Institute for Research in Language Teaching, Department of Education, 1942. – 1519 p.
3. Firth J. R. *Papers in Linguistics 1934–1951*. – London: Oxford University Press, 1957. – xii, 233 p
4. Cowie A. P. “The Treatment of Collocations and Idioms in Learners’ Dictionaries.” // *Applied Linguistics*. – 1981. – Vol. II, Issue 3. – P. 223–235.
5. Hausmann F. J. “Kollokationen im deutschen Wörterbuch. Ein Beitrag zur Theorie des lexikographischen Beispiels.” // Bergenholtz H., Mugdan J. (Hrsg.) *Lexikographie und Grammatik*. – Tübingen: Max Niemeyer, 1985. – S. 118–129.
6. Мельчук И. А. *Опыт теории лингвистических моделей «Смысл ⇔ Текст»*. – Москва: Наука, 1974. – 314 с.